



THE POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE ON LAND OWNERSHIP AND PROPERTY RELATIONS IN THE TURKESTAN REGION IN THE 1880S

U. Usarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in History
National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkestan, Russian Empire, land ownership, property, private land, waqf, state land, irrigation, regulation, article (clause), local, sedentary, agriculture.

Received: 20.06.25

Accepted: 22.06.25

Published: 24.06.25

Abstract: This article reveals the essence of the land ownership and property policy pursued by the Russian Empire in the Turkestan region during the 1880s. It analyzes the Empire's efforts to legalize land ownership and property relations in the region in accordance with its own interests, based on archival documents, materials from the statistical committee, and research works from various periods. Additionally, the article examines the state of land ownership and property relations in the Turkestan region based on the provisions of the "Regulation on the Administration of the Turkestan Region" adopted by the Russian imperial government in 1886.

XIX ASRNING 80-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O'LKASIDAGI YER EGALIGI VA MULKCHILIK MUNOSABATLARIGA OID SIYOSATI

U. Usarov

dotsent, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiston, Rossiya imperiyasi, yer egaligi, mulkchilik, xususiy yer, vaqf, davlat yeri, sug'orish, nizom, modda, mahalliy, o'troq, dehqonchilik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asrning 80-yillarda Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida olib borgan yer egaligi va mulkchilik munosabatlariga oid siyosatining mazmun-mohiyati va o'lkada yer egaligi hamda mulkchilik munosabatlarini imperiya hukumati manfaatlariga mos holda

qonuniylashtirish borasidagi harakatlari arxiv hujjatlari, statistika qo'mitasi materiallari va turli davr tadqiqot ishlari tahlili asosida ochib berilgan. Shu bilan birga, Turkiston o'lkasidagi yer egaligi va mulkchilik munosabatlarining holatini Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan 1886-yilda qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi" Nizom moddalari asosida ko'rib chiqilgan.

ПОЛИТИКА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ОТНОШЕНИИ ЗЕМЛЕВЛАДЕНИЯ И ИМУЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ В 1880-ХГОДАХ

У. Усаров

Доцент, доктор философии (PhD) по истории

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туркестан, Российской империя, землевладение, собственность, частная земля, вакф, государственная земля, ирригация, положение, статья, местный, оседлый, земледелие.

Аннотация: В данной статье раскрывается сущность политики Российской империи в сфере землевладения и имущественных отношений, проводимой в Туркестанском крае в 1880-х годах. На основе архивных документов, материалов статистического комитета и исследований различных периодов проанализированы действия имперской власти, направленные на узаконивание земельных и имущественных отношений в крае в соответствии с интересами империи. Также рассматривается состояние землевладения и имущественных отношений в Туркестанском крае на основе положений «Положения об управлении Туркестанским краем», принятого правительством Российской империи в 1886 году.

KIRISH. XIX asrning 80-yillarining boshlariga kelib, Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida harbiy yurishlari natijasida qo'lga kiritilgan hududlarida o'zining boshqaruvi tizimini ancha mustahkamlab oladi. Natijada, Rossiya imperiyasi hukumati vakillari o'lkanim imperiya manfaatlariga to'liq bo'ysundirish uchun boshqaruvi tizimini o'z nazoratiga olish hamda uning normativ huquqiy asoslarini mustahkamlashga harakat qilgan. Bu davrda Turkiston o'lkasi aholisi asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi sababli o'lkadagi yer egaligi va mulkchilik munosabatlari eng muhim masalalardan biri bo'lib turar edi. Rossiya imperiyasi kelgusida o'lkadagi mustamlakachilik siyosatini yanada mustahkamlash uchun bu

masalani o‘z manfaatiga moslashtirishi kerak edi. Shu maqsadda haligacha hal etilmagan o‘lkadagi yer egalgi va mulkchilik munosabatlarini qay tartibda olib borish lozimligini yakunlash uchun chora tadbirlarni tezlashtirib yuborgan.

TADQIQOT NATIJALARI. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasida o‘zining mustamlakachilik hukmronligini o‘rnatgandan so‘ng, o‘lkani boshqarish maqsadida bir necha bor nizomlarning qonun loyihalarini ishlab chiqib, amalga tadbiq etgan. Xususan, XIX asrning 80-yillariga qadar Rossiya imperiyasining amaldorlari Turkiston uchun 1867, 1871 va 1873-yillarda ishlab chiqilgan, ammo amalda rasman tasdiqlanmangan nizom loyihalari asosida o‘lkani siyosiy-ma’muriy, harbiy, adliya, moliya, ichki va tashqi jihatdan boshqarib kelgan[8, – 190 b.].

XIX asrning 80-yillari boshlariga kelib, aynan 1881-yilda Rossiya imperiyasi harbiy vazirligi Turkiston general-gubernatorligidan nizomning oxirgi loyihasini topshirishni so‘radi. Vazirlik amaldori general-leytenant G.A.Kolpakovskiy 1881-yil oxiri – 1882-yil boshida hisob bo‘yicha uchinchisi bo‘lgan 1873-yildagi nizom asos qilingan yangi nizom loyihasini ko‘rib chiqishni vazirliklar xodimlaridan iborat general-adyutant D.M.Skobelev boshchiligidida alohida yangi tuzilgan komissiyaga topshirdi. Lekin, o‘lkaga yangi general-gubernator M.G.Chernyayevning tayinlanishi bilan bu komissiyaning faoliyati to‘xtatilib, o‘lkani yangidan taftish qilish uchun Rossiya imperatorining maxfiy maslahatchisi F.K.Girs boshchiligidida yangi komissiya tayinlandi[12]. F.K.Girs o‘lkaga kelgach, Turkiston general-gubernatorligidan avvalgi komissiyalar xulosalari va o‘lka bo‘yicha ma’lumotlarni o‘ziga taqdim etishlarini so‘rab, o‘lka general-gubernatoriga murojaat qiladi[13].

F.K.Girs boshchiligidagi komissiya yer egaligi va mulkchilik munosabatlarini o‘rganish maqsadida o‘tkazgan tekshiruvlari o‘lkada bu sohaning boshqaruvini tashkil etishda asos bo‘ldi va umumlashtirildi. Buning natijasi 1886-yildagi “Turkistonni boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”da o‘z aksini topdi. Nizomning qator bandlari aynan agrar masalalarga bag‘ishlandi[5, – 27 b]. Biroq tashkil etib borilgan komissiyalar va nizomning ba’zi bandlari ham vaqt-i vaqt bilan o‘zgartirib borildi.

“Turkistonni boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”ning 255-bandida general-gubernator tomonidan o‘rnatilgan qoidalarga muvofiq, “Qishloqlarning o‘troq aholisi avlod-ajdodlari bilan doimiy ega bo‘lib kelgan, mahalliy odatga asoslangan holda foydalanib yoki tasarruf qilinib kelingan (amlok) yerlar mazkur qishloq aholisiniki deb hisoblanadi”[7, – 51 b.]. Suvdan foydalanish tartibi “Nizom”ning 256-bandida quyidagicha bayon qilindi: “Katta ariqlar, soyalar, daryolar va ko‘llardagi suv aholiga odatdagidek foydalanishga berib qo‘yiladi”. Biroq, general-gubernator va uning amaldorlari 1886-yildagi Nizomning 255-bandini mahalliy aholining sun’iy sug‘oriladigan yerlari uchungina taalluqli deb hisobladilar. Ushbu holatni qonuniylashtirish

maqsadida 1886-yildagi “Nizom”ning ayrim bandlariga, ayniqsa, 255-bandiga nisbatan, o‘zgartirish va qo‘sishimcha kiritish uchun qonun loyihalari ishlab chiqildi. Bu bilan o‘lka ma’muriyati, “birinchidan, davlatga tegishli bo‘sh yerlarni aholi tomonidan egallanmasligining oldini oldi va ikkinchidan, yer solig‘i to‘lovlarini tezlashtirib, arzonlashtirdi”[4, – C 3.].

1886-yildagi “Turkistonni boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”da vaqf yer egaligi va mulkchiligi masalalari ham qonuniylashtirildi. Jumladan,

1) nizomning 266-bandiga ko‘ra, yangi vaqflarni tashkil etish faqatgina general-gubernator ruxsati bilangina amalga oshiriladi;

2) vaqf hujjatlarini tasdiqlash, vaqf boshqaruvini tartiblash, kelayotgan daromadni nazorat qilish va uni to‘g‘ri ishlatish, Nizomning 267-bandiga ko‘ra, viloyat boshqaruviga topshirildi;

3) vaqf hujjatlarini dastlabki o‘rganish va mahalliy boshqaruv idoralarining qarori bilan vaqf yerlarini vaqtincha yer solig‘iga tortish;

4) 289 va 299-bandlar bilan aholi yashamaydigan vaqf yerlari davlat solig‘iga tortildi[2, – C. 22-23.].

Turkistondagi imperiya hukumati vakillari “Turkistonni boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” yer egaligi, xususan vaqf yer egaligi va mulklariga tegishli bandlarini bajarish, o‘lkada yer-suv munosabatlarini chuqur o‘rganib, boshqarish yo‘llarini imperiya manfaatlariga moslash maqsadida o‘lkani boshqarish to‘g‘risidagi Nizomining 6-bandiga asosan mahalliy aholi 1887-yil 1-iyuldan kech qolmasdan o‘ziga tegishli vaqf yerlariga bo‘lgan huquqini asoslovchi, ehson (hadya) qilingan yer va boshqa turdagи mulklariga oid bo‘lgan hujjatlarni, Nizomning 10-bandiga ko‘ra, ko‘rib chiqishi uchun “Yer solig‘i” komissiyasiga taqdim etish sharti belgilandi. Shu muddat ichida topshirilmagan vaqf yer egaligi va mulklariga tegishli bo‘lgan hujjatlar qalbaki hisoblanib, o‘z kuchini yo‘qotadi deb e’lon qilindi[10]. Ma’muriyat tomonidan berilgan topshiriq bilan birgina o‘lkaning Sirdaryo viloyati mahalliy aholisi tomonidan 1887-yil davomida “Yer solig‘i” komissiyasiga 586 ta hujjat topshirildi[2, – C. 23.]. Lekin 1891-yildagi Sirdaryo viloyati statistika materiallari to‘plamida Turkiston o‘lkasi “Yer-solig‘i” komissiyasiga 1887-yilda Sirdaryo viloyati mahalliy aholisi tomonidan topshirilgan hujjat soni quyidagicha shaklda berilgan[6, – C. 23.]:

Sirdaryo viloyati uyezdлari	Haqiqiy vaqfnoma	Qozilar hukmi	Xon va boshqa shaxslarning inoyatnomasi	Oldi-sotti shartnomasi	Oldi sotti haqidagi yozishmalar	Rivoyatlar	Xonlar guvohnomasi	Ijara shartlari	Vaqfnoma nusxalari	Qozi hukmi nusxalari
Toshkent sh.	109	42	3	10	-	-	-	1	2	1
Toshkent uyezdi	94	36	112	10	2	1	1	5	9	3
Avliyoota uyezdi	23	5	-	-	-	-	-	-	-	-

Chimkent uyezdi	6	1	6	-	-	-	-	-	3	-
Perovskiye uyezdi	-	-	4	-	-	-	-	-	-	-
Amudaryo bo‘limi	66	1	-	-	-	-	-	-	30	-
Hammasi	298	85	125	20	2	1	1	6	44	4

O‘lkadagi rus ma’muriyati ma’lumotlarida ma’lum bo‘lishicha, Sirdaryo viloyati bo‘yicha ehson qilingan mulklar 2027 ta, ular tarkibida madrasa, masjid, saroy, karvonsaroy, savdo rastalari, hammom, tegirmon, bug‘doy yanchuvchi uskunalar, hovlilar, qorixona, hujralar, novvoyxona, bog‘lar, yer uchastkalari va naqd pullar bo‘lgan[2, – C. 24.]. Jumladan, viloyat bo‘yicha madrasalar 11 ta, masjidlar 9 ta, saroy va karvonsaroyslar 10 ta, bozor rastalari 832 ta, hammomlar 8,5, tegirmonlar 14 ta, bug‘doy yanchuvchi uskunalar 6 ta, hovlilar 19,5, qorixonalar 4 ta, hujralar 5 ta, novvoyxona 1 ta, bog‘lar 9 ta, yer uchastkalari 1082 ta, kutubxona 2 ta, naqd pul 2602 ming rubl 80 kopeykadan iborat bo‘lgan[2, – C. 24.]. Vaqf yerlaridan kelgan daromadlar, hujjatlarda belgilangan vaqf egalari ruxsatiga ko‘ra, o‘zлari taqdim qilgan muassasalar ehtiyojiga sarflangan. Shuningdek, o‘lkanning Farg‘ona viloyatida esa bu davrda 10 000 ga yaqin vaqf hujjati ko‘rilmay qolib ketgan[1, – 30 b.].

1887-yilda P.V.Blagoveshenskiy Toshkent shahri va uyezdi vaqfnomalarini taftish qilish chog‘ida shaharda 109 ta, uyezdda 94 ta vaqf hujjatini qayd qilgan[2, – C. 23.]. Arxiv hujjatlarida esa, Toshkent shahri bo‘yicha taxminan 120-125 atrofida vaqf xo‘jaligi bo‘lganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ularning 11 tasiga oid hujjatlarda kamchiliklar tufayli taftish ishlarini olib borish to‘xtatilgan[9].

1887-yilda taqdim etilgan hujjatlar asosida birgina Toshkent shahri va Toshkent uyezdida joylashgan mulklar Yer solig‘i komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilib, ularning 441 hujjatdan 13 tasi muddati o‘tgan vaqf mulklari, 14 tasi vaqf egaligini tasdiqllovchi hujjatlar mavjud emasligi sababli to‘xtatilgan, 15 tasi 1887-yilda o‘lkani boshqarish to‘g‘risidagi Nizomning 266-bandiga ko‘ra, Turkiston general-gubernatori tasdiqlashi uchun vaqf muassasalariga qaytarilgan[2, – C. 27.]. Shu tariqa taqdim etilgan hujjatlardan 104 ta mol-mulkning 42 tasi noloyiq, Toshkent uyezdida joylashgan 257 tasi “Yer solig‘i komissiyasi”ga qayta ko‘rib chiqish uchun topshirilgan. Toshkent bo‘yicha qolgan 142 ta hujjat, viloyatning boshqa uyezdlaridagi hujjatlar uyezdlarda yer solig‘i ishlari bo‘yicha komissiya ochish uchun viloyat komissarlariga topshirildi[2, – C. 28.]. Masalan, 1889-yilga kelib, Toshkent uyezdidagi Parkent qishlog‘i va Jetikent volostlaridagi 7 ta yer uchastkasiga taalluqli bo‘lgan 49 hujjat o‘rganildi. Tekshirish ishlari natijasiga ko‘ra, Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyo xonliklari hududlarini bosib olmasdan avval mazkur 7 yer uchastkasi o‘z chegarasini yo‘qotib, mahalliy aholi ixtiyoriga o‘tib ketgan va aholi uni o‘zining shaxsiy

uchastkasi deb hisoblagan. Natijada bu yer uchastkalari Sirdaryo viloyati boshqarmasi tomonidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblangan[2, – C. 27.].

Bu borada o‘lkada faoliyat yuritgan imperiya ma’muriyati vakili, polkovnik A.I.Gippius shunday yozadi: “Bu bilan biz o‘z vositachiligidizni taklif etib, qog‘ozda ko‘p narsani va’da bergen holda vaqf mahkamalari yerida yashayotgan ijarachilar yoki, umuman, xalq bilan vaqf mahkamalarining bevosita aloqasi darhol to‘xtatildi va dastlabki vaqtida haqiqatan ham soliqlardan yoki berilgan imtiyozlarga nisbatan norozilik bildirgani uchun vaqf mahkamalariga xazinadan talab etilgan summa qaytarildi. Biroq, bu masalani batamom tartibga solish uchun 1887 yilning 1 iyuliga qadar bo‘lgan muddat ichida barcha vaqf hujjatlarini topshirish talab etildi, topshirilmagani esa qonuniny kuchga ega emas deb e’lon qilindi. Shunga qaramay, topshirilgan hujjatlarning 90 foizi ko‘rib chiqilmadi, qolgan 10 foizidan bir qismigina hukumat tomonidan istisno tariqasida tan olindi. Bunga ishonib o‘zlarining huquqiy dalillarini taqdim etgan barcha vaqf mahkamalari oxir-oqibatda rus hukmronligida nafaqat avvalgi o‘z daromadlaridan, hatto, qonuniy qilib aytganda, ularning kelgusida faoliyat ko‘rsatish huquqidan ham mahrum etildilar”[11].

Tadqiqotchi S.Boltaboyevning yozishicha, mana shunday kayfiyatda bo‘lganlik uchun ham hukumat tomonidan yig‘ishtirib olingan vaqf hujjatlarini tekshirish ishlari paysalga solib kelindi. Bu esa vaqf mahkamalari ishlarida tartibsizliklarni keltirib chiqardi. Albatta, bir qarashda bu qonun-qoidalar mukammal bo‘lib ko‘rinadi. Ammo mahalliy xalqning haq-huquqlari, histuyg‘ulari bir necha ming yillik urf-odatlar, milliy qadriyatlar tahqirlanayotgandi[1, – 29 b.].

Sirdaryo viloyati statistika qo‘mitasi boshlig‘i I.Geyyerning yozishicha, Turkiston o‘lkasi Yer solig‘i komissiyasining Sirdaryo viloyati Toshkent uyezdida olib borgan faoliyati davomida to‘plangan ma’lumotlar bu yerli aholining iqtisodiy hayotiga oid bir qator ma’lumotlar to‘plash imkonini bergen. Uning ta’kidlashicha, bu yerdagi quruq yerlar kelajakdagi kuzatishlarni rivojlantirishga imkon beradi[3, – C. 245-246.]. Bu yerda dehqonchilik madaniyati yaqin o‘n yillar davomida o‘zgarmay kelgan. O‘lkada ish olib borgan komissiyalar faoliyatida asosiy masala vaqf masalasi bo‘lgan ekan, u orqali davlat xazinasiga kelib tushadigan mablag‘lardan tashqari, o‘lkaning xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatga aylanishi va vaqf mahkamalarining ahvoli tubdan o‘zgarishiga ham olib keldi.

Umuman, Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasida olib borgan yer egaligi va mulkchilik munosabatlarida quyidagicha siyosat yuritdi: o‘lkadagi barcha yerlar davlat xazinasiga tegishli deb e’lon qilindi. O‘troq mahalliy aholiga yer merosiy yakka jamoa egaligi tariqasida, ko‘chmanchi aholiga esa muddati cheklanmagan tarzda jamoa bo‘lib foydalanish uchun topshirildi; o‘troq joylarda yer undan amalda foydalanayotganlarga biriktirildi. Bu tartibga binoan sud organlariga yer-suvga oid munozarali masalalarni hal etishda qozilar tomonidan berilgan yerga egalik qilish haqidagi hujjatlariga – vasiqalarga tayanmay, aksincha, amalda yerdan kam foydalanayotganiga

qarab ish tutish lozimligi haqida ko‘rsatma berildi; ko‘p hollarda vaqflar avvalgi tarzda qoldirildi, ammo ayrim hollarda vaqf yerlarini davlat ixtiyoriga olish ham mumkinligi belgilandi; sobiq imtiyozli shaxsiy mulk egalariga boshqalar qatori soliq solindi. Ular endi xususiy mulk emas, balki davlat yerlari deb ataldi va dehqonlarga merosiy ravishda egalik qilish va foydalanishga topshirilgani ma’lum qilindi; shahar tashqarisida rus aholisiga yer ajratish ham taqiqlandi; yevropaliklar, xususan, ruslar tomonidan mahalliy aholiga qarashli yerlarni sotib olish mutlaq man etildi[8, 212 b.].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, XIX asrning 80-yillarining boshlariga kelib, Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasidagi yer egaligi va mulkchilik munosabatlarini o‘zining mustamlakachilik manfaatlariga mos holatda tartibga solishga uringan. Shu maqsadda o‘lkaga bir qator mutaxassislarni ham jalg etib, o‘lkani yer egaligi qay tartibda hal etish uchun turli komissiyalar tashkil etdi. O‘lkadagi yer egaligi masalasida Rossiya imperiyasi tomonidan tayinlangan ma’muriyat vakillari va komissiya a’zolari mahalliy aholining yer egaligi va mulkchilik munosabatlarini o‘rganib, ularni go‘yoki huquqiy tomondan tartibga solishga ya’ni barcha yerlarni davlat tasarrufiga o‘tkazishga harakat qilgan. Bir necha bosqichli o‘lkani boshqarish to‘g‘risidagi nizomlarni qabul qilinishi o‘lkada mahalliy aholiga tegishli yerlarni taftish qilish yo‘li orqali barcha yerlarni davlat yerlari deb e’lon qilgan.

Shuningdek, o‘lkadagi vaqf yer egaligi va mulkclarini esa asta-sekinlik bilan dastlab soliqqa tortilib, so‘ng o‘lkani boshqarish to‘g‘risidagi nizom bandlariga ko‘ra noloyiq deb topilganlari zo‘rlik bilan tortib olingan. Shunday qilib, o‘lkani mustamlaka tizimi doirasida ushlab turish uchun imperiya iqtisodiyotiga katta foya keltiradigan yer egaligi va mulkchilik shakllarining barchasini Rossiya imperiyasi manfaatlariga moslashtirdi. Bu tadbirlar doirasida imperiya hukumati mahalliy aholi manfaatlarini umunn inobatga olmagan. Oqibatda mahalliy aholining ijtimoiy ahvoli og‘ir holatga kelib qolgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Болтабоев С. Туркистондаги вақф мулклари тарихи. Ўқув-услубий қўлланма. – Наманган: Наманган, 2005. – 29-30 б.
2. Благовещенский В.Ц. Къ вопросу о вакуфахъ в Сыръ-Дарьинской области // Сборникъ материаловъ для статистики Сыръ-Дарьинской области. Изд. Сыръ-Дарьинского областного Статистического комитета. Под ред. секретаря комитета И.И. Гейера. – Ташкент: Типо-литографія С.И. Лахтина. 1891. – С. 22-28.
3. Гейер И. Селение по современному состоянию распределения земледельческих угодий среди населения Ташкентского уезда Сыръ-Дарьинской области (составлено, по экспликациям планов поземельно-податной комиссии, И. Гейером) // Сборникъ материаловъ для статистики Сыръ-Дарьинской области. Изд. Сыръ-Дарьинского

областного Статистического комитета. Под ред. секретаря комитета И.И. Гейера. – Ташкент: Типо-литография С.И. Лахтина. 1891. – С. 245-246.

4. Материалы для Статистического описания Ферганской области. Результаты поземельно-податных работ. Вып. IV. – Кокандский уезд, 1912. – С. 3.

5. Суюнова О. Чор Россиясининг Туркистонни бошқариш хақидаги 1886 йил Низомининг аграр бандлари хақида / O‘zbekiston tarixi. №1. 2002. – 27 б.

6. Сборник материалов для статистики Сыръ-Дарьинской области // Изд. Сыръ-Дарьинского областного Статистического комитета. Под. ред. секретаря комитета И.И. Гейера. – Ташкент: Типо-литография С.И.Лахтина, 1891. – С. 23.

7. Ўзбекистон ССР тарихи. Т. II. / И.М.Мўминов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1971. – 51 б.

8. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Биринчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 190-212 б.

9. ЎзМА, И-17-фонд, 1-рўйхат, 31916-ийғмажилд, 56-варақ.

10. ЎзМА, И-1-фонд, 12-рўйхат, 630-ийғмажилд, 29-варақ.

11. ЎзМА, И-1-фонд, 12-рўйхат, 884-ийғмажилд, 67-варақ.

12. ЎзМА, И-1-фонд, 1-рўйхат, 2319-ийғмажилд, 73-74-варақлар.

13. ЎзМА, И-1-фонд, 1-рўйхат, 2319-ийғмажилд, 94-варақ.